



axloqiy qadriyatlarning mazmunli mohiyatini aks ettiruvchi bilimlar tizimining mavjudligi va kasbiy faoliyat jarayonini uning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda va talabalar, hamkasblar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar sohasida bashorat qilish va loyihalash qobiliyati bilan tavsiflaymiz [1].

Deontologik sifatlarni rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, psixologik treninglar, hamkorlikdagi loyihalar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z kasbiga sadoqat, insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Shuningdek, deontologik tarbiyaning samaradorligi o‘qituvchi tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini insonparvarlik g‘oyalari, kasbiy etika va madaniyat, kommunikativ kompetensiyalar bilan boyitishga bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan, muammoli vaziyatlardan, refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini baholash usullaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik sifatlarini rivojlantirish ularning shaxsiy va kasbiy kamolotini ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda kelajak avlodni ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois mazkur yo‘nalishda pedagogik tajriba, ilmiy izlanish va amaliy faoliyatning uzviy birligi ta’minlanmog‘i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Батура И.Н. Деонтологическая компетентность педагога: теоретический аспект // Педагогическая наука и образование, 2021. – № 3. – С. 5–8.
2. Караханова Г.А. Формирование деонтологической культуры учителя в системе непрерывного педагогического образования // Общество: социология, психология, педагогика, – 2017. – С. 17.
3. Орешкина М.Е. Деонтология в профессиональной деятельности логопеда // Автореферат дисс... канд. пед. наук. – Москва: МПГУ, 2007. – 34 с.
4. Safarova R.G, Gaipov D.J. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Nókis: «AVANGARD-BASPA», 2025. – 120 bet.

BO‘LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM VA KREATIV IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

Davlatova Nilufar Vosiljonovna

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Ndavlatova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O‘zbekiston kreativ iqtisodiyotining shakllanishi va bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta’lim tizimining o‘rni tahlil qilinadi. UNCTAD (2024), WIUT (2024) hamda S. Xamidullaev (2024) ma’lumotlari asosida mamlakatda kreativ tarmoqlarning iqtisodiy o‘rinishdagi ulushi, raqamli transformatsiya jarayonlari va innovatsion ta’lim yondashuvlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, iqtisodchi mutaxassis, problemali o‘qitish, loyihali ta’lim, raqamli transformatsiya, innovatsion ta’lim.

THE ROLE OF EDUCATION AND CREATIVE ECONOMY IN DEVELOPING CREATIVE ECONOMIC THINKING AMONG FUTURE ECONOMISTS

Nilufar Davlatova Vosiljonovna

PhD student, Namangan State Technical University

Email: nilufar.davlatova@gmail.com

Abstract. The thesis analyzes the formation of Uzbekistan’s creative economy and the role of the education system in developing creative economic thinking among future economists. Based on UNCTAD (2024), WIUT (2024), and Khamidullaev (2024), the study explores the contribution of creative industries to national economic growth, the impact of digital transformation, and innovative education methods on economic performance.



Keywords: creative economy, economist, problem-based learning, project-based education, digital transformation, innovation in education.

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ЭКОНОМИСТОВ

Давлатова Нилуфар Васильджановна

Докторант Намаганского государственного технического университета

Email: nilufar.davlatova@gmail.com

Аннотация. В тезисе анализируется формирование креативной экономики Узбекистана и роль системы образования в развитии креативного экономического мышления будущих экономистов. На основе данных UNCTAD (2024), WIUT (2024) и Хамидуллаева (2024) рассмотрены доля креативных отраслей в экономическом росте страны, процессы цифровой трансформации и влияние инновационного образования на повышение экономической эффективности.

Ключевые слова: креативная экономика, экономист, проблемное обучение, проектное обучение, цифровая трансформация, инновационное образование.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kreativ tarmoqlarning rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. 2024-yil 3-oktabrda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun ijodiy sohalarning iqtisodiy o‘shisdagi ahamiyatini mustahkamladi. UNCTAD (2024) hisobotida qayd etilishicha, kreativ iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning 3,1 foizini va bandlikning 6,2 foizini tashkil etadi.

WIUT (2024) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 1,46 foizni, bozor hajmi esa 3 milliard AQSh dollarini tashkil etmoqda. 2022-yilda mamlakatda 50860 ta korxona faoliyat yuritgan, kreativ sohalarda 936 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. S. Xamidullaev (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra 9563 ta korxona va 84 mingdan ortiq xodim kreativ tarmoqlarda faoliyat yuritmoqda. Har bir viloyatda “Kreativ industriyalar parklari” tashkil etilgan, startaplar uchun 100 million so‘mgacha imtiyozli kredit tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Buyuk Britaniya, Koreya va Skandinaviya mamlakatlarida kreativ iqtisodiyot ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Koreya modeli “Creative Campus” dasturi orqali talabalarda loyiha asosidagi iqtisodiy tafakkurni shakllantirsa, Skandinaviya mamlakatlari ta’limni kreativ iqtisodiyotning asosiy omili sifatida belgilangan.

Kreativ iqtisodiyot O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Bu soha ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, problemali va loyihali o‘qitish texnologiyalari iqtisodiy bilimlarni ijodiy tahlil qilish, muammolarni nostandart yechish, innovatsion yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Koreya va Skandinaviya ta’lim modellari misolida ko‘rilganidek, kreativ iqtisodiyot ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan holda rivojlanishi inson kapitali sifatini oshiradi va iqtisodiy o‘shishning intellektual omiliga aylanadi. Shu bois, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kreativ iqtisodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli va loyihali o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish mamlakatning innovatsion taraqqiyot strategiyasiga to‘liq mos keladi.

Kreativ iqtisodiyot O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Bu soha ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, problemali va loyihali o‘qitish texnologiyalari iqtisodiy bilimlarni ijodiy tahlil qilish, muammolarni nostandart yechish, innovatsion yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Koreya va Skandinaviya ta’lim modellari misolida ko‘rilganidek, kreativ iqtisodiyot ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan holda rivojlanishi inson kapitali sifatini oshiradi va iqtisodiy o‘shishning intellektual omiliga aylanadi.



Shu bois, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kreativ iqtisodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli va loyihali o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish mamlakatning innovatsion taraqqiyot strategiyasiga to‘liq mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun. 2024-yil 3-oktabr.
2. UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024. Geneva: United Nations, 2024.
3. WIUT. Creative Economy Uzbekistan – Policy Brief. Tashkent: Westminster International University in Tashkent, 2024.
4. Xamidullaev S. “Kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi: O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot.” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, 2024-yil, oktyabr soni, 476–482-betlar.
5. Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. London: Penguin Books, 2013.
6. ScienceProblems.uz. “Ta’limda kreativ fikrlash texnologiyalari.” 2024-yil.
7. Koychumanov T. Kreativnaya ekonomika: teoriya i praktika. Bishkek, 2024.
8. UNDP Uzbekistan. Human Development Report 2024: Innovation and Creativity for Sustainable Growth. Tashkent, 2024.

OGAHYNING „USTINA“ RADIFLI G‘AZALIDA SO‘ZLAR BETAKRORLIGI

Yoqutxon Anvarova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
@anvarovayoqutxon523gmail.com +998998645545
Ilmiy rahbar F.f.d , Mutalova Gulnora Sattarovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ogahiyning „Ustina“ radifli g‘azali badiiy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. G‘azalning mazmuniy qatlamlari , undagi poetic vositalar , tashbeh, tazod, tanosub, istiora, mubolag’a kabi badiiy san’atlarning qo‘llanishi ilmiy-nazariy jihatdan sharhlanadi. Baytlar ketma-ket holda izohlanib , shoirning obrazlar tizimi, uslubiy mahorati va badiiy qarashlari keng yoritiladi. Shuningdek, g‘azalda ifodalangan oshiqona kayfiyat, ma’shuqaning husni va uning oshiqqa ta’siri xususida adabiy-nazariy mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, radif , badiiy san’at, tashbeh, istiora, mubolag’a, ma’shuqa, oshiqona lirika.

УНИКАЛЬНОСТЬ СЛОВ В ГАЗЕЛИ ОГАХИЙ С РЕДИФОМ «УСТИНА»

Йокутхон Анварова

Ташкентский государственный университет востоковедения,
Направление: Филология и
преподавание языков (узбекский язык),
студентка 2-го курса @anvarovayoqutxon523gmail.com
+998998645545
Научный руководитель: д.ф.н., Муталова Гулнора Саттаровна

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний художественный анализ газели Огахий с редифом «Устина». Рассматриваются смысловые слои произведения, использование поэтических средств — таких как ташбех, тазод, таносуб, истиора и мубалага — в научно-теоретическом аспекте. Каждый бейти последовательно анализируется, раскрывается система образов поэта, его стилистическое мастерство и художественные взгляды. Кроме того, в статью представлены литературно-теоретические размышления о любовном настроении, красоте возлюбленной и её влиянии на влюблённого.

Ключевые слова: газель, редиф, художественное средство, сравнение, метафора, гипербола, возлюбленная, любовная лирика.

THE UNIQUENESS OF WORDS IN OGHIY’S GHAZAL WITH THE RADIF “USTINA”